

**KALAMUSHLARDA EKSPERIMENTAL ALKOGOLIZM
MODELINI HOSIL QILISH VA ULARNING FIZIOLOGIK HOLATI
TAHLILI**

Sabirova Dinora Marks qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

Sobirov Maqsadbek Marks o'g'li

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Urganch filiali Klinik Ordenatori

Bahronov Sohibjon Sapo o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

Kalit so'zlar: *alkogolizm, eksperimental model, alkogolizm, oqsil, glukoza, treglidserid, xolesterol*

Annotatsiya: *Alkogolizm dunyo bo'yicha insoniyatga katta xavf tug'diruvchi illatlardan biri bo'lib, pankreatit, qand kasalligi, stenokardiya va miokard infarkti kasalliklariga ham sabab bo'ladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra alkogolizm 2022-yilda 12 va undan katta yoshdagi insonlarning 98 457 nafari jigar kasalligi bilan kasallangan bemorlar o'limining 46%i spirtli ichimliklar bilan bog'liq. Erkaklar orasida 60 412 nafar jigar kasalligi bilan kasallangan bemorlar o'limiga sabab bo'lgan, ularning 48,6%i spirtli ichimliklar bilan bog'liq[1]. Ayollar orasida 38 063 nafar jigar kasalligi bilan kasallangan bemorlar o'limiga sabab bo'lgan, ularning 41,8%i spirtli ichimliklar bilan bog'liq. Shulardan kelib chiqqan holda alkogolizm modelini ishlab chiqish va uning turli oqibatlarini biologik faol moddalar bilan korreksiya qilish fiziologiya sohasida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi[2,3,4]. Shu sabablardan ham alkogolizmni kalamushlarda eksperimental modellarini ishlab chiqish va uni o'rganish fiziologiyaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi[5].*

Tadqiqot metodlari va materiallari. Surunkali eksperimental Alkogolizm bilan kasallangan hayvonlarni vizual tarzda kuzatganimizda ularda

guruh hosil qilish jarayoni kuzatildi, tana vazni va harakatchanlik kamaydi. Harakat koordinatsiyasi buzilishi kuzatildi. Tananing ayrim qismlarida tuklar to'kilib, teri ochilib qoldi. Ularda qarshilik ko'rsatish va agressiya kuchaydi.

Kalamushlar yorib ko'rilganda jigar, oshqozon va ichaklarning rangi o'zgarganligi kuzatildi. Ichaklarda limfatik tugunlar shishganligi va qabziyat yuzaga kelganligi aniqlandi. Ularning ichaklari va oshqozoni odatdagiga nisbatan 2-3 barobar kattalashib shishib ketgani ko'rildi.


1-jadval. Tajriba guruhlarida massa ko'rsatkichi.

(M±m; n=5)

Guruh	Tajribagacha	5-kun	10-kun	15-kun	20-kun
Nazorat	204±2,5	202±1,3	204±1,4	204±1,7	202±2,1
1 guruh	202±1,7	190±2,6	182±3,1	175±4,2	156±1,9*
2-guruh	202±1,7	185±2,6	176±3,1	167±4,2	146±1,9*
3-guruh	202±1,8	192±1,6	195±2,7	186±5,4	177±5,7

Izoh-* P<0,05; **-P<0,01; ***-P<0,001

Tajribamizda etil spirti ta'sir ettirilgan kalamushlar qoni tarkibida oqsil miqdori ning keskin oshishi kuzatildi. Bizda 35%li etil spirti ta'sir ettirilgan kalamushlar birinchi guruh, 70% li etil spirt ta'sir ettirilganlari esa ikkinchi guruh deb olindi.




Izoh-* $P < 0,05$; **- $P < 0,01$; ***- $P < 0,001$

1-rasm. Eksperimental modeldagi kalamush qoni tarkibidagi oqsil miqdori ($M \pm m$; $n=5$).

Natijalar tahlil qilinganda nazorat guruhida o'rtacha ko'rsatkich 13,044 g/l, ekanligi, birinchi guruhda 3,798 g/l, ikkinchi guruhda 20,524 g/l, ekanligi ma'lum bo'ldi. 35%li etil spirti ta'sir ettirilgan guruhda oqsil miqdorining 70% ga kamayganligi aniqlandi. Bu ichakda so'rilishning to'liq izdan chiqqanligi natijasi deb taxmin qilindi. 70%li etil spirti ta'sir ettirilgan guruhda esa qondagi umumiy oqsil miqdorida o'sish kuzatilib nazoratga nisbatan 36,44% ga ko'paydi. Kasallik 2 marta kuchaytirilganda hujayralarda apoptoz parchalanish kelib chiqishi, immunologik reaksiyalar kuchayishi evaziga qonda oqsil miqdoridagi o'sishi kuzatilganligi xulosa qilindi.

Kalamushlarga etil spirti ta'sir ettirilganda qoni tarkibidagi uglevod miqdori tekshirildi. Tajribamizda sog'lom kalamushlar nazorat guruhi, 35%li etil spirti ta'sir ettirilgan kalamushlar **birinchi guruh** va 70%li etanol qabul qilganlari esa **ikkinchi guruh** deb hisoblaymiz.




Izoh-* $P < 0,05$; **- $P < 0,01$; ***- $P < 0,001$

2-rasm. Eksperimental modeldagi kalamush qoni tarkibida aniqlangan uglevod miqdori ($M \pm m$; $n=5$).

Natijalar tahlil qilinganda nazorat guruhida o'rtacha ko'rsatgich 4,04mmol/l, ekanligi, birinchi guruhda 23,54mmol/l, ikkinchi guruhda 8,34mmol/l, ekanligi ma'lum bo'ldi. Birinchi guruhda 35%li spirt ta'sirida uglevod miqdori 5,8marta oshgani kuzatildi. 2-guruhda esa bu ko'rsatgich ikki martaga oshgan.(2-jadvalga qarang).

Kalamushlarga etil spirti ta'sir ettirilganda qoni tarkibidagi xolestirol miqdori tekshirildi. Tajribamizda sog'lom kalamushlar nazorat guruhi, 35%li etil spirti ta'sir ettirilgan kalamushlar **birinchi guruh** va 70%li etanol qabul qilganlari esa **ikkinchi guruh** deb hisoblaymiz.




Izoh-* $P < 0,05$; **- $P < 0,01$; ***- $P < 0,001$

3-rasm. Eksperimental modeldagi kalamush qoni tarkibida aniqlangan xolestirol miqdori ($M \pm m$; $n=5$).

Natijalar tahlil qilinganda nazorat guruhida o'rtacha ko'rsatkich 10,83 mmol/l, ekanligi, birinchi guruhda 11,54 mmol/l, ikkinchi guruhda 27,56 mmol/l, ekanligi ma'lum bo'ldi. 35%li etil spirti ta'siridagi kalamushlarning xolestirol miqdori nazoratdagi organizmlar bilan solishtirilganda 1,06 martaga oshganligi aniqlandi. Ikkinchi ya'ni 70%li spirt ta'sir ettirilgan guruhda esa xolestirol miqdori 2,5 martaga oshganligi aniqlandi.

Kalamushlarga etil spirti ta'sir ettirilganda qoni tarkibidagi triglitserid miqdori tekshirildi. Tajribamizda sog'lom kalamushlar nazorat guruhi, 35%li etil spirti ta'sir ettirilgan kalamushlar **birinchi guruh** va 70%li etanol qabul qilganlari esa **ikkinchi guruh** deb hisoblaymiz.



Izoh-* $P < 0,05$; **- $P < 0,01$; ***- $P < 0,001$

4-rasm. Eksperimental modeldagi kalamush qoni tarkibida aniqlangan triglitserid miqdori ($M \pm m$; $n=5$).

Natijalar tahlil qilinganda nazorat guruhida o'rtacha ko'rsatkich 14,3 mmol/l, ekanligi, birinchi guruhda 12,6 mmol/l, ikkinchi guruhda 15,32 mmol/l, ekanligi ma'lum bo'ldi. 35%li spirt ta'sirida triglidserid miqdori 11,8% ga kamayganligi aniqlandi. 70%li etanol ta'sirida esa triglidserid miqdori 1,07 marta oshgani aniqlandi.

Xulosa. Tajribamizda kalamushlarda eksperimental alkogolizm modeli yaratildi va fiziologik holati o'rganilganda ularda guruh hosil qilish jarayoni kuzatildi, tana vazni va harakatchanlik kamaydi. Tananing ayrim qismlarida tuklar to'kilib, teri ochilib qoldi. Ularda qarshilik ko'rsatish va agressiya kuchaydi.

Shuningdek eksperimental modeldagi kalamushlar qoni tarkibidagi oqsil, triglitserid, xolestirol va uglevodlar miqdori aniqlanib tahlil qilinganda 35%li etil spirti ta'sir ettirilgan guruhda qon tarkibidagi oqsil miqdorining nazorat guruhiga nisbatan 70% ga kamayganligi aniqlandi. Bu ichakda so'rilishning to'liq izdan chiqqanligi natijasi deb taxmin qilindi. 70%li etil spirti ta'sir ettirilgan guruhda

esa qondagi umumiy oqsil miqdorida o'sish kuzatilib nazoratga nisbatan 36,44% ga ko'paydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bellono N. W. et al. Enterochromaffin cells are gut chemosensors that couple to sensory neural pathways //Cell. – 2017. – T. 170. – №. 1. – C. 185-198.
2. . Donaldson G. P., Lee S. M., Mazmanian S. K. Gut biogeography of the bacterial microbiota //Nature Reviews Microbiology. – 2016. – T. 14. – №. 1. – C. 20-32.
3. Corrêa-Oliveira R. et al. Regulation of immune cell function by short-chain fatty acids //Clinical & translational immunology. – 2016. – T. 5. – №. 4. – C. e73.
4. Feuerstein J. D., Cheifetz A. S. Crohn disease: epidemiology, diagnosis, and management //Mayo Clinic Proceedings. – Elsevier, 2017. – T. 92. – №. 7. – C. 1088-1103..
5. Furness J. B. Integrated neural and endocrine control of gastrointestinal function //The Enteric Nervous System: 30 Years Later. – 2016. – C. 159-173.